



STATE POLICY ON BUILDING AN INCLUSIVE SOCIETY IN UZBEKISTAN: LEGAL AND SOCIAL ASPECTS

Madina Aliyevna Choriyeva

Associate Professor, Department of Social Sciences and Humanities,

Asia International University, PhD

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: inclusive society, social state, persons with disabilities, inclusive education, equal opportunities, social protection, accessibility, gender equality, mahalla.

Received: 05.09.26

Accepted: 06.09.26

Published: 07.09.26

Abstract: The article analyses the state policy on building an inclusive society in Uzbekistan in its legal and social dimensions. Inclusiveness is interpreted not as charity but as a principle of securing equal opportunities. The 2023 Constitution, legislation on the rights of persons with disabilities, gender equality and education are compared with the requirements of the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities. Practice in inclusive education, employment and physical accessibility is summarised. Four systemic problems are identified — fragmented statistics, non-compliance with accessibility standards, staff training, and unchanged social attitudes — and corresponding measures are proposed.

O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV JAMIYATNI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN DAVLAT SIYOSATI: HUQUQIY VA IJTIMOY JIHATLAR

Madina Aliyevna Choriyeva

Osiyo xalqaro universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar”

kafedrasi dotsenti, falsafa doktori (PhD)

Buxoro, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: inklyuziv jamiyat, ijtimoiy davlat, nogironligi bo‘lgan shaxslar, inklyuziv ta‘lim, teng imkoniyatlar, ijtimoiy himoya, muhit ochiqligi, gender tenglik, mahalla.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda inklyuziv jamiyatni shakllantirishga qaratilgan davlat siyosati huquqiy va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Inklyuzivlik xayriya emas, balki teng

imkoniyatlarni ta'minlash tamoyili sifatida talqin etiladi. 2023-yilgi Konstitutsiya, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari, gender tenglik va ta'lim sohasidagi qonunchilik hamda BMTning Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi talablari qiyoslanadi. Inklyuziv ta'lim, bandlik va jismoniy muhitning ochiqligi bo'yicha amaliyot umumlashtiriladi. To'rtta tizimli muammo — statistikaning tarqoqligi, muhit ochiqligi standartlarining bajarilmasligi, kadrlar tayyorgarligi va ijtimoiy tasavvurlarning o'zgarmaganligi — aniqlanib, ularga mos chora-tadbirlar taklif etiladi.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ФОРМИРОВАНИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ

Мадина Алиевна Чориева

*Доцент кафедры «Социально-гуманитарные науки»
Азиатского международного университета, PhD
Бухара, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: инклюзивное общество, социальное государство, лица с инвалидностью, инклюзивное образование, равные возможности, социальная защита, доступность среды, гендерное равенство, махалля.

Аннотация: В статье анализируется государственная политика формирования инклюзивного общества в Узбекистане в правовом и социальном аспектах. Инклюзивность трактуется не как благотворительность, а как принцип обеспечения равных возможностей. Сопоставляются Конституция 2023 года, законодательство о правах лиц с инвалидностью, гендерном равенстве и образовании, а также требования Конвенции ООН о правах инвалидов. Обобщается практика инклюзивного образования, занятости и доступности физической среды. Выявлены четыре системные проблемы — разрозненность статистики, невыполнение стандартов доступности среды, подготовка кадров и неизменность общественных представлений — и предложены соответствующие меры.

Kirish. Inklyuziv jamiyat tushunchasi so'nggi yigirma yilda ijtimoiy siyosatning markaziy kategoriyalaridan biriga aylandi. Uning mohiyati oddiy: jamiyat resurslari, xizmatlari va qaror

qabul qilish jarayonlari barcha guruhlar uchun teng darajada ochiq bo'lishi kerak. Bu talab BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibida «hech kimni ortda qoldirmaslik» tamoyili sifatida mustahkamlangan [1].

Masalaning miqyosi katta. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, dunyo aholisining qariyb 16 foizi — 1,3 milliard kishi — nogironlikning qandaydir shakli bilan yashaydi va ular sog'liqni saqlash, ta'lim hamda bandlik ko'rsatkichlari bo'yicha qolgan aholidan sezilarli orqada qolmoqda [2]. Inklyuzivlik esa faqat nogironlik masalasi emas: u xotin-qizlar, keksalar, qishloq aholisi va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni ham qamrab oladi.

O'zbekistonda bu yo'nalish 2017-yildan boshlab tizimli tus oldi va 2023-yilda konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlatni ijtimoiy davlat sifatida ta'riflaydi va ijtimoiy himoya kafolatlarini kengaytiradi [3]. Bu norma inklyuziv siyosatning huquqiy negizini tashkil etadi.

Maqolaning maqsadi — O'zbekistonda inklyuziv jamiyatni shakllantirishga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy asoslarini va amaliy natijalarini baholash hamda tizimli muammolarni aniqlash. Vazifalar: inklyuzivlik tushunchasining nazariy mazmunini aniqlashtirish; milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan qiyoslash; ta'lim, bandlik va muhit ochiqligi sohasidagi amaliyotni umumlashtirish; aniq chora-tadbirlar taklif etish.

Inklyuziv jamiyat tushunchasi va nazariy asoslari

Ijtimoiy fanlarda inklyuziya tushunchasi ijtimoiy istisno (social exclusion) tushunchasiga qarama-qarshi kategoriya sifatida shakllangan. Istisno — shaxsning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotda ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'lishi. Inklyuziya esa shu imkoniyatni tiklash jarayonidir. Muhim jihat shundaki, gap shaxsni mavjud tizimga moslashtirish haqida emas, tizimning o'zini shaxsga moslashtirish haqida boradi.

Ijtimoiy istisnoni izohlashda uch nazariy paradigma qiyoslanadi. Birinchisi — birdamlik paradigmasi: istisno shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy bog'lanishning uzilishi deb qaraladi. Ikkinchisi — ixtisoslashuv paradigmasi: istisno mehnat taqsimoti va bozor mexanizmlarining natijasi hisoblanadi. Uchinchisi — monopoliya paradigmasi: istisno resurslarga kirishni nazorat qiluvchi guruhlarining manfaatidan kelib chiqadi [12]. O'zbekiston sharoiti uchun birinchi va ikkinchi paradigmaning uyg'unlashgan talqini eng mos keladi.

Nogironlikni tushunishda ikki model qiyoslanadi. Tibbiy model nogironlikni shaxsdagi nuqson deb qaraydi va uni davolash yoki kompensatsiya qilishni taklif etadi. Ijtimoiy model esa nogironlikni shaxsning jismoniy holati bilan atrof-muhit to'siqlari o'rtasidagi to'qnashuv natijasi

deb biladi. Misol: nogironlik aravachasidagi shaxs uchun to‘siq uning yurolmasligi emas, balki binoda pandus yo‘qligidir.

Nogironlikning ijtimoiy modeli 1980–1990-yillarda ilmiy muomalaga kiritilgan va u siyosat markazini shaxsdan muhitga ko‘chirgan [10]. Unga yaqin nazariy asos — imkoniyatlar (capability) yondashuvidir. Unga ko‘ra farovonlik daromad miqdori bilan emas, shaxsning o‘zi qadrlaydigan hayotni yashay olish erkinligi bilan o‘lchanadi [9]. Ushbu yondashuv nogironlik masalasiga tatbiq etilganda quyidagi xulosaga olib keladi: teng nafaqa teng imkoniyatni anglatmaydi, chunki bir xil natijaga erishish uchun turli shaxsga turlicha resurs zarur [11].

BMTning Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi (2006-yil 13-dekabr) aynan ijtimoiy modelga asoslanadi [4]. Konvensiya to‘rtta asosiy majburiyat belgilaydi: kamsitishning barcha shakllarini taqiqlash; muhit va axborotning ochiqqligini ta‘minlash; oqilona moslashtirish (reasonable accommodation) choralari ko‘rish; qaror qabul qilishda nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlarini jalb etish.

«Oqilona moslashtirish» tushunchasi amaliy jihatdan eng muhimi hisoblanadi. U har bir aniq holatda shaxsning ehtiyojiga mos, nomutanosib xarajat talab qilmaydigan o‘zgartirishni anglatadi: imtihon vaqtini uzaytirish, ish jadvalini moslashtirish, hujjatni Brayl shriftida yoki audio shaklda taqdim etish. Uni ta‘minlamaslik konvensiya bo‘yicha kamsitish deb qaraladi.

Inklyuzivlikni o‘lchash masalasi alohida turadi. Xalqaro amaliyotda uch guruh ko‘rsatkich qo‘llanadi: qamrov ko‘rsatkichlari (ta‘lim va bandlikdagi ulush), muhit ko‘rsatkichlari (ochiq binolar va transport ulushi) hamda ijtimoiy munosabat ko‘rsatkichlari (so‘rovnomalar orqali aniqlanadigan qabul qilish darajasi). Faqat birinchi guruhga tayanish siyosat samaradorligi to‘g‘risida noto‘g‘ri tasavvur beradi.

O‘zbekistonda inklyuzivlikning huquqiy asoslari

O‘zbekistonda inklyuzivlikning huquqiy asoslari uch qatlamdan iborat: konstitutsiyaviy normalar, xalqaro majburiyatlar va sohaviy qonunchilik. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya ijtimoiy davlat tamoyilini e‘lon qiladi, kamsitishni taqiqlaydi hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar, xotin-qizlar va bolalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat majburiyatlarini belgilaydi [3].

Xalqaro majburiyatlar qatorida Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi hal qiluvchi qadam bo‘ldi. Ratifikatsiya milliy qonunchilikni konvensiya standartlariga moslashtirish, davriy milliy hisobot taqdim etish va monitoring mexanizmini yaratish majburiyatini yuklaydi [4].

Sohaviy qonunchilikda markaziy o‘rinni «Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida»gi Qonun egallaydi [5]. Uning oldingi qonundan asosiy farqi atamada emas, yondashuvda: himoya obyekti o‘rniga huquq subyekti tushunchasi joriy etilgan. Qonun muhit

ochiqligi, ta'lim va bandlikda teng imkoniyatlar hamda rehabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash bo'yicha davlat majburiyatlarini belgilaydi.

Ta'lim sohasida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun inklyuziv ta'limni ta'lim tashkil etish shakllaridan biri sifatida belgilaydi [6]. Bu norma alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolaning umumta'lim maktabida o'qish huquqini tan oladi. Gender yo'nalishida esa 2019-yilda qabul qilingan ikki qonun — teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari hamda tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonunlar amal qiladi [7; 8].

Amaldagi normativ bazaning umumiy ko'rinishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Inklyuzivlikka oid asosiy huquqiy asoslar

Daraja	Hujjat	Inklyuzivlik bo'yicha asosiy talab
Konstitutsiyaviy	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil yangi tahriri)	Ijtimoiy davlat tamoyili; kamsitish taqiqlanishi; ijtimoiy himoya kafolatlari
Xalqaro	Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiya (2006)	Muhit va axborot ochiqligi; oqilona moslashtirish; qarorlarga jalb etish
Qonun	«Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida»gi Qonun	Huquq subyekti yondashuvi; teng imkoniyatlar; rehabilitatsiya vositalari
Qonun	«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun	Inklyuziv ta'lim ta'lim shakllaridan biri sifatida belgilangan
Qonun	Gender tenglik va zo'ravonlikdan himoya to'g'risidagi qonunlar (2019)	Teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari; himoya orderi mexanizmi

Ta'lim, bandlik va muhit ochiqligi: amaliyot tahlili

Inklyuziv ta'lim yo'nalishida so'nggi yillarda ikki yondashuv parallel rivojlanmoqda. Birinchisi — ixtisoslashgan muassasalar tarmog'ini saqlab qolish, ikkinchisi — bolani yashash joyidagi umumta'lim maktabiga jalb etish. Amalda ikkinchi yo'nalish tezroq kengaymoqda, biroq u maktabning tayyorgarligiga bog'liq: pandus, moslashtirilgan sanitariya xonasi, yordamchi pedagog va moslashtirilgan o'quv materialli.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, jismoniy shart-sharoit yaratilgan taqdirda ham metodik ta'minot orqada qolmoqda. Umumta'lim maktabi o'qituvchisi ko'pincha defektologiya va maxsus pedagogika bo'yicha tayyorgarlikka ega emas. Natijada bola sinfda jismonan hozir bo'ladi, ammo o'quv jarayoniga to'liq qo'shilmaydi. Bu hodisa xalqaro adabiyotda «formal integratsiya» deb ataladi va u inklyuziyaning o'rnini bosa olmaydi.

UNESCONing 2020-yilgi global ta'lim monitoringi hisoboti inklyuziyaga to'sqinlik qiluvchi omillarni umumlashtiradi va uch guruhga ajratadi: infratuzilma, pedagog tayyorgarligi va o'quv dasturining moslashuvchanligi [13]. Hisobotning asosiy xulosasi shundaki, uchala omilning ikkitasi ta'minlangan, uchinchi ta'minlanmagan holatda ham natija olinmaydi. Bu xulosa milliy amaliyot uchun bevosita ahamiyatga ega.

Bandlik sohasida asosiy vosita — kvota tizimi va ijtimoiy sheriklik. Kvota mexanizmining zaif tomoni shundaki, ish beruvchi uchun uni bajarmaslikdan ko'ra to'lov to'lash arzonroq bo'lishi mumkin. Shu bois xorijiy amaliyotda kvota rag'batlantiruvchi choralari bilan birgalikda qo'llanadi: ish o'rnini moslashtirish xarajatlarini qoplash, soliq imtiyozlari, davlat xaridlarida ustunlik berish.

Jismoniy muhitning ochiqqligi eng sekin o'zgarayotgan yo'nalishdir. Qurilish normalarida pandus, lift va moslashtirilgan sanitariya xonasi talablari belgilangan bo'lsa-da, ularning bajarilishi ustidan nazorat obyektni foydalanishga qabul qilish bosqichi bilan cheklanadi. Keyinchalik pandusning qiyaligi me'yordan keskin farq qilishi yoki lift ishlamay qolishi holatlari keng tarqalgan.

Ijtimoiy xizmatlar sohasida mahalla instituti alohida rol o'ynaydi. Mahalla darajasidagi ijtimoiy ro'yxatlar yordamga muhtoj oilalarni aniqlash imkonini beradi va manzilli yordam ko'rsatishni tezlashtiradi. Ushbu mexanizmning kuchli tomoni — bevositalik, zaif tomoni esa qarorning ko'p jihatdan mahalliy faolning shaxsiy bahosiga bog'liq bo'lib qolishidir.

Axborot ochiqqligi masalasi ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Davlat organlarining veb-saytlari va mobil ilovalari ko'rish qobiliyati cheklangan foydalanuvchilar uchun ekran o'qish dasturlariga moslashtirilmagan. Televidenie ko'rsatuvlarida imo-ishora tarjimai va subtitrlar tizimli emas. Bu esa raqamli xizmatlar kengaygan sari yangi turdagi istisnoni vujudga keltiradi.

Tizimli muammolar va chora-tadbirlar

O'tkazilgan tahlil to'rtta tizimli muammoni ajratish imkonini beradi.

Birinchi muammo — statistikaning tarqoqligi. Nogironligi bo'lgan shaxslar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar to'g'risidagi ma'lumotlar turli idoralarda turli metodika asosida yuritiladi. Natijada siyosat samaradorligini yagona shkalada baholab bo'lmaydi.

Milliy statistika tizimida nogironlik ko'rsatkichlari toifalar bo'yicha e'lon qilinadi, biroq ta'lim, bandlik va muhit ochiqqligi kesimidagi bog'langan ma'lumotlar yetishmaydi [14]. Xalqaro amaliyotda esa aynan shu uchta kesimning kesishmasi inklyuzivlik darajasining asosiy o'lchovi hisoblanadi.

Ikkinchi muammo — muhit ochiqqligi standartlarining bajarilmasligi. Norma mavjud, ammo uning ijrosi ustidan obyektidan foydalanish davridagi doimiy nazorat yo'q.

Uchinchi muammo — kadrlar tayyorgarligi. Inklyuziv ta'lim uchun zarur bo'lgan yordamchi pedagog, tyutor va surdotarjimon kabi kasblar bo'yicha tayyorgarlik hajmi ehtiyojdan orqada.

To'rtinchi muammo — ijtimoiy tasavvurlarning o'zgarmaganligi. Nogironlik ko'pincha rahm-shafqat obyekti sifatida qabul qilinadi; bu esa mehnat bozorida va kundalik muloqotda yashirin to'siqlar hosil qiladi.

Ushbu muammolarga mos chora-tadbirlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Aniqlangan muammolar va taklif etilayotgan chora-tadbirlar

Muammo	Taklif etilayotgan chora	Kutilayotgan natija
Statistikaning tarqoqligi	Yagona metodika asosidagi inklyuzivlik reyestri; yiliga bir marta yangilanadigan ochiq ma'lumotlar to'plami	Siyosat natijasini yagona shkalada baholash imkoni
Muhit ochiqligi ta'minlanmagani	Obyektlarni foydalanishga qabul qilishdan keyin ham davriy audit; audit natijalarini ochiq e'lon qilish	Ochiq binolar ulushining o'lchanadigan o'sishi
Kadrlar yetishmasligi	Pedagogika yo'nalishlarida inklyuziv ta'lim moduli — kamida 2 kredit; yordamchi pedagog lavozimining joriy etilishi	Formal integratsiyadan haqiqiy inklyuziyaga o'tish
Ijtimoiy tasavvurlar	OAV va ta'lim dasturlarida huquq subyekti yondashuvini targ'ib qilish; nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlarini muhokamalarga jalb etish	Yashirin to'siqlarning kamayishi

Xulosa. O'zbekistonda inklyuziv jamiyatga o'tish bo'yicha huquqiy asos shakllangan: konstitutsiyaviy daraja, xalqaro majburiyat va sohaviy qonunchilik o'zaro bog'langan. Bu bosqich asosan yakunlangan deb baholanishi mumkin.

Asosiy vazifa endi normani amaliyotga o'tkazishdir. Tahlil ko'rsatadiki, muammo qonunning yo'qligida emas, uning ijrosini o'lchash va nazorat qilish mexanizmlarining zaifligidadir. Ayni shu sababli statistikani birlashtirish va muhit ochiqligi auditini joriy etish birinchi navbatdagi qadam hisoblanadi.

Tadqiqot doirasi cheklovini ham qayd etish lozim. Maqolada normativ hujjatlar va umumlashtirilgan amaliyot tahlil qilindi; hududlar kesimidagi empirik o'lchov o'tkazilmadi. To'liq baho berish uchun ochiq binolar ulushi, inklyuziv sinflardagi o'quvchilar ulushi va ish bilan bandlik darajasi bo'yicha hududiy ma'lumotlar to'plami zarur.

Inklyuzivlik xarajat emas, investitsiya sifatida qaralishi lozim. Ta'lim va mehnat bozoriga jalb etilgan har bir shaxs ijtimoiy nafaqa oluvchidan soliq to'lovchiga aylanadi. Shu bois inklyuziv siyosatning iqtisodiy samaradorligini hisoblash metodikasini ishlab chiqish keyingi tadqiqot vazifasi bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barqaror rivojlanish sohasidagi 2030-yilgacha mo'ljallangan kun tartibi (BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil 25-sentabrdagi 70/1 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan).
2. Global report on health equity for persons with disabilities. – Geneva: World Health Organization, 2022. – 122 p.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-apreldagi umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahriri). – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
4. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiya (BMT Bosh Assambleyasining 2006-yil 13-dekabrdagi 61/106 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan).
5. O'zbekiston Respublikasining «Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida»gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – <https://lex.uz>
6. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – <https://lex.uz>
7. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda teng imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi O'RQ-562-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – <https://lex.uz>
8. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi O'RQ-561-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – <https://lex.uz>
9. Sen A. Development as Freedom. – New York: Alfred A. Knopf, 1999. – 366 p.
10. Oliver M. The Politics of Disablement. – London: Macmillan, 1990. – 152 p.
11. Nussbaum M. Frontiers of Justice: Disability, Nationality, Species Membership. – Cambridge (Mass.): Harvard University Press, 2006. – 487 p.
12. Silver H. Social Exclusion and Social Solidarity: Three Paradigms // International Labour Review. – 1994. – Vol. 133, No. 5–6. – P. 531–578.
13. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education – All Means All. – Paris: UNESCO, 2020. – 424 p.
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti. – <https://stat.uz>